


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

60230200 – Tarjima nazariyasi va amaliyoti (ingliz tili)
bakalavriat ta'lif yo'nalishining malaka talablari

Toshkent



ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

- Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Oliy va o'rta maxsus, professional ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2022 yil «29» 08 dagi 5 - sonli yig'ilishida ma'qullangan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022 yil «08» 08 dagi 302 - sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.

Mazkur Malaka talabi "Oliy ta'lim davlat standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy malaka ramkasiga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy xujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	<i>60230200 – Tarjima nazariyasi va amaliyoti (ingliz tili)</i> bakalavriat ta’lim yo‘nalishining umumiy tavsifi	4
1.1.	Qo‘llanish sohasi	4
1.1.1.	<i>60230200 – Tarjima nazariyasi va amaliyoti (ingliz tili)</i> bakalavriat ta’lim yo‘nalishi Malaka talabining qo‘llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	<i>60230200 – Tarjima nazariyasi va amaliyoti (ingliz tili)</i> ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi	5
1.2.1.	<i>60230200 – Tarjima nazariyasi va amaliyoti (ingliz tili)</i> ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari.....	5
1.2.2.	<i>60230200 – Tarjima nazariyasi va amaliyoti (ingliz tili)</i> ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	5
1.2.3.	<i>60230200 – Tarjima nazariyasi va amaliyoti (ingliz tili)</i> ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4.	<i>60230200 – Tarjima nazariyasi va amaliyoti (ingliz tili)</i> ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy vazifaları	6
2.	<i>60230200 – Tarjima nazariyasi va amaliyoti (ingliz tili)</i> ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar.....	7
2.1.	Umumiy kompetensiyalar.....	7
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar.....	7
	Bibliografik ma’lumotlar.....	8
	Kelishuv varog‘i	9

1. 60230200 – Tarjima nazariyasi va amaliyoti (ingliz tili) bakalavriat ta’lim yo‘nalishining umumiy tavsifi

60230200 – Tarjima nazariyasi va amaliyoti (ingliz tili) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi ta’lim shaklida amalga oshiriladi. Ushbu ta’lim shakli bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta’limda bakalavriat dasturining me’yoriy muddati 4-yil.

1.1. Qo‘llanish sohasi

1.1.1. 60230200 – Tarjima nazariyasi va amaliyoti (ingliz tili) ta’lim yo‘nalishi Malaka talabining qo‘llanilishi

Malaka talabi *60230200 – Tarjima nazariyasi va amaliyoti (ingliz tili)* ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta’lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talabning asosiy foydalanuvchilarini:

Mazkur ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas’ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor o‘qituvchilari; ta’lim yo‘nalishining o‘quv rejasi va o‘quv dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta’lim tashkilotining talabalari; bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari; ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari; oliy ta’lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar; oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat kiluvchi vakolatli davlat organlari; kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar; oliy ta’lim tashkilotlariga o‘qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 60230200 – Tarjima nazariyasi va amaliyoti (ingliz tili) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi

1.2.1. 60230200 – Tarjima nazariyasi va amaliyoti (ingliz tili) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari:

60230200 – Tarjima nazariyasi va amaliyoti (ingliz tili) bakalavriat ta’lim yo‘nalishi – gumanitar fanlar sohasidagi yo‘nalish bo‘lib, tarjimashunoslik, lingvistika, adabiyotshunoslikka oid tadqiqotlar o‘tkazish, tarjimashunoslik istiqbolini belgilash, kasbiy ko‘nikma, mutasaddilik qobiliyatiga yo‘naltirilgan ilmiy va tarjimonlik sohalariga doir usullar, uslublarni ishlab chiqish; umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida ixtisosligiga doir fanlar

bilan bir qatorda o'zbek va ingliz tillarini o'qitish; korxonalarda tarjima bo'yicha xizmat ko'rsatish, ommaviy axborot vositalarida tarjimonlik va muharrirlik qilish, davlat boshqaruvi organlari, xalqaro tashkilotlar, turli davlat va nodavlat muassasalari, jumladan, turizm bilan bog'liq muassasalarda tarjima tizimini tashkillashtirish bilan bog'liq kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. 60230200 – Tarjima nazariyasi va amaliyoti (ingliz tili) ta'lif yo'nalishi bo'yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

– o'zbek tilidan ingliz tiliga tarjima materiallari: badiiy, publisistik, ilmiy, ommabop; o'zbek va jahon adabiyotining sara asarlari; autentik va semiautentik o'quv materiallari; o'zbek va ingliz tillaridagi funksional uslub; o'zbek va ingliz tili lug'at qatlaming stilistik farqlanishi; ta'lif jarayonidagi me'yoriy hujjatlar, pedagogik texnologiyalar, ta'lifning texnikaviy vositalarini o'rganish, til o'qitish metodikasi, jahon adabiyotidagi mumtoz va zamonaviy asarlar, tarjima uchun qo'llanadigan elektron dasturlar, sinxron tarjima va madaniyatlarni muloqot masalalari bo'yicha, shuningdek, bitiruvchilari pedagogik qayta tayyorlashdan o'tgandan keyin, umumiy, o'rta, o'rta maxsus ta'lif muassasalarida ta'lifning vakolatli boshqaruvi organlari tomonidan aniqlanadigan ingliz tili fanini o'qitish bo'yicha pedagogik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladi.

1.2.3. 60230200 – Tarjima nazariyasi va amaliyoti (ingliz tili) ta'lif yo'nalishi bo'yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining turlari

- tarjimonlik;
- tarjimonlik va muharrirlik (ommaviy axborot vositalarida);
- tashkiliy–boshqaruv;
- xizmat ko'rsatish;
- ilmiy-tadqiqot;
- til o'qitish metodikasi va pedagogik (umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasbhunar ta'limi tizimida);
- ma'naviy-ma'rifiy.

1.2.4. 60230200 – Tarjima nazariyasi va amaliyoti (ingliz tili) ta'lif yo'nalishi bo'yicha bakalavrлarning kasbiy vazifalari.

60230200 – Tarjima nazariyasi va amaliyoti (ingliz tili) ta'lif yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Tashkiliy-boshqaruv hamda ishlab chiqarish va hizmat ko'rsatish faoliyatida:

- maorif, madaniyat, turizm sohalarida tarjimonlik faoliyatini tashkil qilish;
- tarjimaning samarali tizimini ishlab chiqish va tadbiq qilish;
- tarjima va ta'lif jarayonida sifat ko'rsatkichlarini takomillashtirish;
- tarjima va ta'lif jarayonlarining samaradorligini oshirish uchun zarur bo'lgan texnologiyalarni rejalashtirish;

– axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog'liq jarayonlari monitoringi va sifatini baholash metodlari va mexanizmlarini ishlab chiqish;

– turli muassasalar, tashkilotlar va korxonalar ishini tashkil qilish va uni boshqarish;

– boshqaruq qarorlarini qabul qilish;

– ta'lif jarayonlarining atrof-muhit muhofazasi, yong'in, texnika va mehnat xavfsizligi talablariga mosligini monitoring qilish;

– bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishning natijalarini baholash *qobiliyatiga ega bo'lishi lozim*.

Tarjimonlik va muharrirlik faoliyatida (ommaviy axborot vositalarida):

– televideniye va radioda tezkor axborot, badiiy va ilmiy-ommabop audio va video materiallarni tarjima qila olish;

– matbuot, radio, televideniye, kinostudiyalarda inglizcha matnlarni o'zbek tiliga va o'zbekcha matnlarni ingliz tiliga tarjima qila olish;

– matnlarni tahrir qilish;

– ingliz tilidagi gazeta, jurnallarda tarjimon, muharrir va adabiy xodim sifatida faoliyat yuritish;

– televideniyeda ingliz tilidagi ko'rsatuvlarning boshlovchisi faoliyatini amalga oshirish;

– radioda ingliz tilidagi eshittirishlarni olib boruvchi sxuxandonlik qilish *qobiliyatiga ega bo'lishi lozim*.

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

– tarjimashunoslik sohasida respublika va xorijda amalga oshirilgan tadqiqotlarni o'rganish, tizimli tahlil qilish, munosabat bildirish;

– ilmiy ma'lumotlarni jamlash, saralash, ulardan ilmiy etika asosida foydalanish;

– internet tarmog'ida sohaga oid yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni qidirib topish va ulardan maqsadli foydalanish;

– o'zbek tilidan ingliz tiliga va aksincha, ingliz tilidan o'zbek tiliga sohaga oid ilmiy asar, maqola va tezislarni tarjima qilish;

– ilmiy maqola, tezis, ma'ruza va taqdimotlar tayyorlash;

– ilmiy anjuman va seminarlarda ma'ruza bilan ishtirok etish;

– ilmiy izlanish olib borish, tadqiqot natijalari va ishlanmalarini amaliyotga joriy etish *qobiliyatiga ega bo'lishi lozim*.

Til o'qitish metodikasi va pedagogik faoliyatda:

– o'zbek va ingliz tillari o'qitish metodikasining maqsadi, vazifalari, predmeti va metodik tushunchalarni bilish;

– o'zbek, ingliz tillarini o'qitish jarayonida zamonaviy metodlarni qo'llash;

– til o'rganuvchilarga til materiali (talaffuz, leksika, grammatika)ni o'zlashtirish metodikasini tushuntira olish;

– o'zbek, ingliz tillarida nutq faoliyati turlarini tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozuv malakalarini o'rgatish;

- til materiali bo'yicha nutq ko'nikmalarini shakllantirish;
- o'quv jarayonini tashkil etish, dars rejasini tuzish, til o'rganuvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish;
- elektron o'qitish usullarini egallash;
- zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib noan'anaviy o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;
- o'qitilayotgan fanlar bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish uchun zarur bo'lgan o'quv-metodik hujjatlarni tuzish, tayyorlash va rasmiylashtirish;
- o'qitilayotgan fan bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish uchun o'qitishning didaktik vositalaridan foydalanish;
- mustaqil ta'llim va ilmiy-ijodiy qidiruv ishlari natijasida o'qitilayotgan fan bo'yicha pedagogik faoliyatini muntazam takomillashtirib borish *qobiliyatiga ega bo'lishi lozim*.

– Tarjimonlik faoliyatida:

- tarjima ishini tashkil qilish;
- tarjimonga qo'yiladigan talablar, tarjimonning huquq va burchlari bilan tanishgan bo'lish;
- tarjima vositalari, elektron resurslardan foydalana olish;
- tarjima nazariyasini o'qitishda namunaviy innovation texnologik jarayonlarni ishlab chiqish va ularni qo'llash;
- o'zbek tilidan ingliz tiliga va aksincha, ingliz tilidan o'zbek tiliga turli matnlarni, badiiy asarni erkin tarjima qila olish;
- o'zbek zamonaviy va mumtoz adabiyoti namunalarini bevosita nemis tiliga tarjima qilish;
- tarjimalarni tahrir qila olish va tanqidiy maqolalar yoza olish;
- tarjimadagi adabiyotshunoslik va tilshunoslik nuqtai nazaridan yondoshuvlarni farqlay bilsish;
- tarjima metodlarini bilsish va ularni amaliyotda qo'llash;
- og'zaki va yozma tarjima uslublarini farqlay olish;
- xalqaro konferensiyalarda sinxron, vizual, ketma-ket tarjima qila olish kabi qobiliyatlarga ega bo'lish;
- o'rgatilayotgan tillarni jadallahsgan usulda o'rgatish va xizmat ko'rsatishni tashkil qilish *qobiliyatiga ega bo'lishi lozim*.

Quyidagi bakalavr darajasi beriladi:

- tarjimon, ingliz tili o'qituvchisi.

**2. 60230200 – Tarjima nazariyasi va amaliyoti (ingliz tili)
ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga
qo‘yiladigan talablar**

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- fuqarolik jamiyatining dolzarb masalalarini bilishi, O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasiga hamda bugungi kun siyosiy hayotiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo‘lish;
- dunyoqarash bilan bog‘liq falsafiy bilimlarga tizimli ega bo‘lishi, mustaqil tahlil qila olishi, kasbiy faoliyatida ularni hisobga ola bilishi;
- ikkinchи chet tili sifatida xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid xujjalatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, erkin muloqot qila olishi;
- xorijiy va nodavlat korxona hamda tashkilotlarda ish faoliyatini olib boorish uchun rus tilida muloqot qila olishi;
- axborot yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini, shuningdek, dasturlash tillari, til korpuslarini egallagan bo‘lishi, o‘z kasbiy faoliyatida mustaqil axborot texnologiyalari va Internet tarmog‘idan foydalana olishi;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;
- sog‘lom turmush tarzi, ekologik toza hayot va unga amal qilish zaruriyati to‘g‘risida amaliy tessavvur hamda e’tiqodga, o‘zini jismoniy chiniqtirish o‘quv va ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;
- xorijiy davlatlarning tili, madaniyati haqida umumiy tasavvurga ega bo‘lishi;

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- tarjima va tillarni o‘qitish faoliyatlarini tashkil qilish;
- tarjimonga qo‘yiladigan talablar, tarjimonning huquq va burchlari bilan tanishgan bo‘lish;
- tarjima vositalari, elektron resurslardan foydalana olish;
- tarjima nazariyasini o‘qitishda namunaviy innovatsion texnologik jarayonlarni ishlab chiqish va ularni qo‘llash;
- o‘zbek tilidan ingliz tiliga va aksincha, ingliz tilidan o‘zbek tiliga turli matnlarni, badiiy asarni erkin tarjima qila olish;
- o‘zbek zamonaviy va mumtoz adabiyoti namunalarini bevosita ingliz tiliga tarjima qilish;
- qiyosiy adabiyotshunoslik, adabiyot nazariyasi, o‘zbek va jahon adabiyoti, o‘zbek va jahon adabiyoti namoyondalari va ularning ijodi haqida tasavvurga ega bo‘lishi;
- ingliz tilining nutqiy faoliyat turlarini, ya’ni fikrini og‘zaki va yozma ifoda eta olishi, tinglab va o‘qib tushinish kabi ko‘nikmalarga yetarlicha darajada ega bo‘lishi;

- ingliz tilining til strukturalarini, ya’ni grammatik, fonetik va leksik me’yorlari haqida yetarlicha bilim, ko’nikmalarga ega bo’lishi;
- ingliz tilining stilistikasi, uslubiyot me’yorlari, diskurs tahlili, shuningdek, leksikologik, semantik va qiyosiy tipologik asoslari haqida umumiy tasavvur, bilimlarga ega bo’lishi;
- Ma’lum bir ijtimoiy sohada ish faoliyatiga oson moslashish va muvaffaqiyatlarga erishish uchun madaniyattalararo muloqot va yetakchilik (liderlik) layoqat, ko’nikmalariga ega bo’lish;
- ingliz tilida so’zlashuvchi mamlakatlar tili, madaniyati, tarixi, sivilizatsiyasi va lingvomamlakatshunoslik tushunchalari haqida umumiy bilimlarga ega bo’lishi;
- tarjimalarni tahrir qila olish va tanqidiy maqolalar yoza olish;
- tarjimadagi adabiyotshunoslik va tilshunoslik nuqtai nazaridan yondoshuvlarni farqlay bilish;
- tarjima metodlarini bilish va ularni amaliyotda qo’llash;
- og’zaki va yozma tarjima uslublarini farqlay olish;
- xalqaro anjumanlarda sinxron, vizual, ketma-ket tarjima qila olish kabi qobiliyatlarga ega bo’lish;
- har qanday turdag‘i hujjatlarni, matnlarni yozma tarjima qila olishi;
- ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, texnik, tibbiyot, kimyo, sanoat, ishlab chiqarish kabi sohalarga, shuningdek, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga tegishli terminlarni o’zbek tilidan ingliz tiliga va aksincha, ingliz tilidan o’zbek tiliga tarjima qila olishi;
- tarjimaning ixtisoslashtirilgan yo’nalishlari (badiiy, ilmiy-texnik, sinxron tarjima), shuningdek, tarjima tanqidi, lug’at tuzish tamoyillari, og’zaki tarjima asoslari to’g’risida bilim va ko’nikmalarga ega bo’lishi;
- hozirgi o’zbek adabiy tilining va davlat tilida ish yuritishning me’yoriy-huquqiy asoslarini bilish;
- o’rgatilayotgan tillarni jadallahgan usulda o’rgatish va xizmat ko’rsatishni tashkil qilish qobiliyatiga ega bo’lishi lozim;
- xorijiy tillarni o’qitish metodikasining maqsadi, vazifalari, predmeti va metodik tushunchalarni bilish, umumiy pedagogika va psixologiya haqida umumiy tasavvur ega bo’lishi;
- xorijiy tillarni o’qitish jarayonida psixologik me’yorlarni inobatga olgan holda zamonaviy metodlar, pedagogik taxnologiyalarni qo’llash;
- til o’rganuvchilarga til materiali (talaffuz, leksika, grammatika)ni o’zlashtirish metodikasini tushuntira olish;
- o’zbek va ingliz tillarida nutq faoliyati turlarini tinglab tushunish, gapishtish, o’qish va yozuv malakalarini o’rgatish;
- o’quv jarayonini tashkil etish, dars rejasini tuzish, til o’rganuvchilarining bilim, ko’nikma va malakalarini nazorat qilish;
- elektron o’qitish usullarini egallash;
- zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib, noa’nanaviy o’quv mashg’ulotlarini o’tkazish;

- o'qitilayotgan fanlar bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish uchun zarur bo'lган o'quv-metodik hujjatlarni tuzish, tayyorlash va rasmiylashtirish;
- mustaqil ta'lim va ilmiy-ijodiy qidiruv ishlari natijasida o'qitilayotgan fan bo'yicha pedagogik faoliyatini muntazam takomillashtirib borish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

Kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat sohasi, integrallashgan til ko'nikmalari, badiiy tarjima, tarjimashunoslik, sinxron tarjima, lингистика, tarjima vositalari, tarjima metodlari, qiyosiy grammatika, tarjima nazariyasi va amaliyoti, hozirgi o'zbek adabiy tili, lison, nutq, me'yor, til va jamiyat, til oilalari, til guruhlari, umumevropa kompetensiyalari, tarjimaning pragmatik muammolari, arab va fors tillari, mumtoz adabiyot, adabiy yodgorliklar, milliy uyg'onish, yangi o'zbek adabiyoti, jahon adabiyoti, adabiyotshunoslik. ilmiy tadqiqotlarni tashkil qilish, virtual elektron bilim manbalari, didaktika, nazariya.

KELISHUV VAROG'I

ISHLAB CHIQILGAN:

Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Rektor

Sh.Sirojiddinov

m.o.

2022 yil « ____ » _____



KELISHILDI:

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta
maxsus ta'lif vazirligi huzuridagi
Oliy ta'lifni rivojlantirish tadqiqotlari
va ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish
markazi

Direktor

Sh.Yakubov

2022 yil « ____ » _____



O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi

S.Sayyid

m.o.

